



YOSH AVLOD TARBIYASIDA OILANING O'RNI HAQIDA SHARQ ALLOMALARINING QARASHLARI VA TA'LIMOTI

Ochilov Yakub Saydulloyevich

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Shonazarova Ozoda Erkinovna

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada bola tarbiyasida oilaning o'rni, ota-onaning bola tarbiyasidagi vazifasi, oiladagi muhitning tarbiya jarayoniga ta'siri hamda sharq mutafakkirlari, qomusiy olimlarning asarlarida keltirilgan fikrlari, ta'limotlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oila, shaxs, davlat, jamiyat, aqlan yetuklik, axloqan yetuklik, sog'lom muhit, farzand, ijtimoiy hayot, kamolot, komillik, umumdavlat, turmush, hayot.

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi[24]. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak? degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand



tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechogʻlik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar koʻchada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo oʻtib ketmagan, shu zahotiyoq tanbeh berib toʻgʻri yoʻlga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, goʻzal xulqli boʻlish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi[23].

Oiladagi muhit ota-ona oʻz ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror boʻladi. Bolalarning odobli boʻlib ulgʻayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida koʻrganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan oʻzaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan boʻladi[22]. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuygʻulariga chuqur ta'sir koʻrsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha boʻlgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida oʻta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib oʻtgan[8]. Bu haqda u shunday deb yozgan: “...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan boʻlsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga oʻta e'tiborli boʻlish lozim. Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir. Paygʻambarimiz (s.a.v.): “Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun farzdir”, deb marhamat qilganlarida, oʻgʻil va qiz farzandlarimizga ilm olish uchun barobar sharoitni ta'minlash kerakligini nazarda tutganlar[25].

Shoir mutafakkirlar qomusiy asarlarida va odob axloqqa bagʻishlangan risolalarida oʻzlarining pedagogik qarashlarini ifodalaganlar va ular pedagogik hamda falsafiy-didaktik xarakterga egadirlar. Bular jumlasiga Yusuf Xos Xojibning “Qutadgʻu bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul Haqoyiq”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Saʼdiyning



“Bo‘ston va Guliston”, Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” va “Mahbub-ul qulub”, Nizomul-mulkning “Siyosatnoma” kabi pandnoma, nasihatnoma tarzda yozilgan asarlari kiradi[21].

“Bizga tarixdan ma‘lumki, qadimgi yunon faylasuflari Aflotun va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o‘z ixtiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim”, - degan g‘oyani ilgari surgan edilar[9]. Bu g‘oya fransuz xayoliy socialistlari Sen-Simon, Sharl Fure va David Rikardolarning asarlarida keyinchalik rivojlantirildi. Ular o‘z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liq deb isbotlamoqchi bo‘lganlar. Shunga ko‘ra, bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug‘ullanishi kerak, degan g‘oyani ilgari surganlar. Ammo Sharq mutaffakkirlari, bola tarbiyasi bilan ota-onaga shug‘ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e‘tibor beradilar[20].

Farobiy o‘zining odob-axloq haqidagi ta‘bir joiz bo‘lsa, axloqiy tarbiya haqidagi qarashlarini muayyan bir tizimga tushiradi. Uning so‘ziga qaraganda, nimaiki baxtni qo‘lga kiritishga xizmat qilsa - yaxshilikdir, nimaiki baxtga erishishga xalaqit bersa, mutlaq yomonlikdir. Bu fikr uning axloqiy qarashlarida asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, u o‘z fikrini yanada chuqurlashtirib, ko‘zda tutilgan maqsadni qo‘lga kiritishga yordam beruvchi qobiliyat va xatti-harakat - yaxshilik, uning aksi bo‘lsa yomonlikdir, degan g‘oyani ilgari suradiki, bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog‘i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo‘lmog‘i lozim degan xulosa kelib chiqadi[19].

2) Oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos Al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjud. Uning aytishicha “ota-onalar ikki xil: tug‘ilish otasi va ta‘lim berish” otasi: birinchisi, jismoniy hayot sababli, ikkinchisi, ruhiy hayot sababli”. Shunga ko‘ra ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhimdir. Uning quyidagi so‘zi ancha ibratlidir:



“Zamondan yaxshiroq ta`lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq ta`lim oladigan o`quvchini ko`rmadim”. Uning bu so`zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta`sirni anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta`lim natijasida kamolotga yerishib borishi mumkinligini anglaymiz[26].

3) Abu Rayhon Beruniy “O`tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “E`tiqodlar va dinlar haqida” kabi ko`pgina asarlarida bolalarni axloqiy tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni yozadi. Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarni insonning tabiati bilan bog`laydi. Inson tabiati ota-ona. Avvalo oilada shakllanadi[18]. Shunga ko`ra, bola tarbiyasida ota-ona ta`siri va namunaga benihoya kattadir. Masalan, u ayollarga nasihat qilib, Abdulla ibn Ja`far tilidan shunday deb yozadi. “Rashkdan saqlangin”. U taloqning kalitidir. Yeringga tez-tez tanbeh qilishni senga ta`qiqlayman. Chunki, tanbeh nafrat uyg`otadi. O`zingni bezab yurgin. Buning uchun yaxshi vosita surmadir. Yana xushbo`y atirlardan foydalangin. Ularnig ichida eng yaxshisi suvdur. Uning bu fikrlari bevosita oilada farzand tarbiyasiga ta`lluqlidir[17].

Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o`rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, pokizalik va tartib mavjud emas ekan, u yerda ma`naviy poklik ham bo`lmaydi. Bu fikrini tanni toza tutish bilangina cheklab bo`lmaydi, balki ko`p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to`g`risidagi g`oya bilan bog`liqdir. Bu narsa bola tarbiyasida jismoniy sog`lomlik bilan ma`naviy kamolot o`rtasidagi o`zaro muvofiqlik, mutanosiblik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir[16]. Beruniy aytishicha, odam-odamni talamaydigan va xo`rlamaydigan yomonchilik bo`lmaydigan davrlarda odamlar tinch-totuv yashaganlar, ular o`rtasida o`zaro oqibat bo`lgan, birgalashib savob ish qilganlar. Binobarin, bunday ma`naviy muhit bolalarning tarbiyasiga ham ijobiy ta`sir qiladi. Oliyjanoblik odamgarchilik jamiyatda qaror topsa, bu fazilatlar kishilar hayotiy faoliyatiga kirib borishi oson bo`ladi, degan fikrni olg`a surgan[10].



Beruniyning yozishicha, kishilar hayotlarida turli holatda bo'ladilar va turlicha harakat qiladilar. Ularning ayrimlari bilan maqtaladilar, boshqalari bilan qoralanadilar. Bularning hammasi bolalar ko'z o'ngida yuz beradi. Buni to'la his etgan ota-ona ehtiyot bo'lmoqlari zarur. Ota-onalar bilan birga harakat qilishlari, turli o'yinlar uyushtirishlari, ular bilan birga o'zaro suhbatlar o'tkazishlari maqsadga muvofiq deb maslahat beradi. Bu bilan Beruniy bolalarni tarbiyalashning muayyan uslubiyotini ham asoslab bergan[15].

Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo'tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali yerishilishini aytib, ularni hohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Yaxshi xulqlarni paydo bo'lishi bola ruhiyatiga ta'sir qilibgina qolmasdan, uning fiziologik o'sishiga ham yordam beradi. Yomon xulq esa turli mijoz buzilishlariga ham olib keladi. Aksincha bola organizmidagi o'zgarishlar uning ruhiyatidagi, xatti-harakatidagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi[14].

Ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i - otaning roliga alohida e'tibor beradi. "Aga oilada, - deydi u, - oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda undan yomon natijalar kelib chig'ishi mumkin". Bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilsa, oila baxtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar bu vazifani mas'uliyat bilan ado etishi lozim[27].

Yusuf Xos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tandan quvvatni, ko'zdan nurni, dildan oromni talab qiladi. Uning ta'kidlashicha, agar insonning o'zida go'zal fazilatlar bo'lsa, ularni boshqalarga o'rgatish lozim. Lekin odob-axloq, rasm-rusum odat va irodani hosil qilish uchun zo'r kuch va harakat kerak



bo'ladi. Bu narsa ta'lim va tarbiya natijasida paydo bo'ladi. Bu olijanob vazifani bajarish esa ota-onaning zimmasidadir. Chunki Yusuf Xos Hojib zamonasida ijtimoiy tarbiya rivojlanmagan, bola, asosan oilada tarbiyalanib, shaxs sifatida shakillanar ekan[13].

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Unsurul ma-oliy Kaykovusning "Qobusnoma" sidir. Bu asar yuqorida to'xtalib o'tgan mutafakkirlarimiz asarlari qatorida Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rinni egallaydi va qanchadan qancha avlodlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib kelmoqda[11].

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni olib borish lozimligini ta'kidlaydi; "Yosh bola ilm bilan adabni tayoq bilan o'rganur, o'z ixtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayog'i bilan qo'rqitg'il. Bolalarga muallimlar adob bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin".

Kaykovusning "Qobusnoma" asari Sharq pedagogikasining durdonalaridan hisoblanadi. Uni qanchadan qancha avlodlarimiz qunt bilan o'qib o'rganganlar. Bu asar bugungi kunda ham ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi[12].

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini o'rta surdi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi[28].

Xulosa qilib aytganda bola tarbiyasidan oila boshlang'ich bo'g'in bo'lib eng katta vazifani bajaradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 1.KarimovI.A., Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori, T., 1997;
2. 2.Abdulla Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq, T., 1992; G‘aybullayev N. R. va boshqa, Pedagogika, T., 1999.
3. 3.Azimaxon Kamolova osh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. "Science and Education" Scientific Journal / December 2022 / Volume 3 Issue 12. 590-592 betlar
4. Niyozmetova R. XX asr o‘zbek adabiyotini o‘qitish mazmunini belgilash masalalari. - T.: TDPU, 2000. - 105 b.
5. Niyozmetova R. Uzlaksiz ta'lim tizimida o‘zbek adabiyoti o‘rganish metodikasi. - T.: Fan. 2007. - 215 b.
6. Nishonova S. SHarq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotidabarkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. dok. diss... - T.: 1988. - 289 b.
7. Okont V. OsnovM problemnogo obucheniya. - M.: Prosvern,enie, 1998. - S. 87-98.
8. Qizi, I. D. G. U. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA ABU HOMID G ‘AZZOLIY ASARLARINING TUTGAN O ‘RNI. *Research Focus*, 3(12), 109-114.
9. Saydulloyevich, O. Y. (2024). TALABALARNI MANAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA ABU HOMID G'AZZOLIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 511-516.
10. Saydulloyevich, O. Y., & Erkinova, S. O. (2024). ABU HOMID G ‘AZZOLIY ASARLARIDA “YOLG ‘ON SO ‘ZLASH VA YOLG ‘ON QASAM ICHISH” YOMON ILLAT EKANLIGI HAQIDAGI QARASHLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 505-510.
11. Saydulloyevich, O. Y. (2022). The educational and moral significance of the spiritual heritage of Imam ghazali.



12. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali.
13. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.
14. Saydulloyevich, O. Y. (2023). SAMPLES OF THE WISDOM OF IMAM ABU HAMID GHAZALI QUOTED IN THE GREAT WORKS. *World Bulletin of Social Sciences*, 25, 18-21.
15. Xolova, M. S., & Ochilov, Y. S. (2021). Pedagogical Conditions For The Development Of Healthy Thinking In Students. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 54-57.
16. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
17. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability* (2660-9630), 12, 424-429.
18. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.
19. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.
20. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.
21. Shavkatovna, X. M. (2021). O ‘QUVCHILARDA SOG ‘LOM TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTSHAROITLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1298-1302.



22. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. Academia Repository, 4(10), 90-94.
23. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024, December). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
24. Xolova, M., & Amirqulova, M. (2024, December). QUALIFIED TEACHER-EFFECTIVE LESSON ORGANIZER. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 1, No. 12, pp. 285-289).
25. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(35), 494-498.
26. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER TENGLIKNING HUQUQIY VA IJTIMOIIY ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 3(35), 499-504.
27. Shavkatovna, X. M. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH. Research Focus, 3(11), 124-128.
28. Shavkatovna, X. M., & Qizi, S. R. B. (2024). INKLYUZIV TA'LIM: GLOBAL TAJRIBA VA O'ZBEKISTON MODELII. Research Focus, 3(11), 117-123.